

SHAHARLARNING IQTISODIY-IJTIMOIIY RIVOJLANISHINING ILMIY-  
NAZARIY JIHATLARI

**Joniqulov Behzodbek Ravshan o‘g‘li,**  
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti  
[joniqulovbegzod30071998@gmail.com](mailto:joniqulovbegzod30071998@gmail.com)

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15170635>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada shaharlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilinadi. Shaharlarni o‘rganishda geografik yondashuv va uning uslubiy masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Shaharlarning mamlakat va mintaqalar iqtisodiyotidagi o‘rni hamda roli tizimli ravishda tahlil etiladi. Urbanizatsiya jarayonining asosiy omillari va rivojlanish yo‘nalishlari ilmiy asoslangan holda yoritiladi. Tadqiqot natijalari shaharlar rivojlanishining samarali boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

***Kalit so‘zlar:** Shahar rivojlanishi, iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot, geografik tahlil, urbanizatsiya, mintaqaviy iqtisodiyot, boshqaruv mexanizmlari.*

Shaharlar jamiyatning hududiy tashkil etilishining ijtimoiy-iqtisodiy hamda tarixiy-madaniy shakli sifatida uzoq yillardan beri tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Ularning paydo bo‘lishi, faoliyat yuritishi va rivojlanishi turli fanlar – ijtimoiy fanlar bilan bir qatorda iqtisodiyot, geografiya, demografiya, tarix, siyosatshunoslik, madaniyatshunoslik va boshqa ko‘plab sohalar tomonidan o‘rganiladi. Shaharlar nihoyatda murakkab va ko‘p qirrali tizim bo‘lib, ularni jamiyatning milliy miqyosdagi tuzilmalari bilan qiyoslash mumkin. Shaharlarning mazmunini, ularning qanday ishlashini va rivojlanish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni tushunish nafaqat mavjud shahar muammolarini hal qilishga, balki kelajakda paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan muammolarni oldindan ko‘ra bilishga ham katta imkoniyat yaratadi[1].

Geografik nuqtai nazardan “**shahar**” — bu ma’lum bir hududiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarga ega bo‘lgan aholi yashash joyi bo‘lib, unda aholi zichligi yuqori, infratuzilma rivojlangan va turli xizmat ko‘rsatish sohaları jamlangan bo‘ladi. Shaharlar tashqi ko‘rinishi, hajmi, murakkablik darajasi va aholi punktlarining rivojlanish xususiyatlari jihatidan juda xilma – xil bo‘lgan umumiy nomdir. Ammo ularning umumiy xususiyati shundaki, shaharlar hunarmandchilik mehnatini qishloq xo‘jaligidan ajratish natijasida paydo bo‘lgan[2]. Shahar faoliyatning ixtisoslashuvini chuqurlashtirishga imkon berdi va keyinchalik uning turli turlarini birlashtirishga yordam berdi. Eng umumiy yondashuvga ko‘ra, shahar aholisi asosan qishloq xo‘jaligi bo‘lmagan mehnat bilan shug‘ullanadigan aholi punktidir. Rossiya Granat bibliografiya instituti tomonidan nashr etilgan XX asr boshidagi entsiklopedik lug‘atida shahar “turli ijtimoiy munosabatlar evolyutsiyasi asta-sekin qishloq aholi

# “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

punktlari toifasidan ajratib turadigan maxsus turar-joy turi” deb ta’riflanadi. “Buyuk rus entsiklopediyasi” da taqdim etilgan “shahar” tushunchasini shakllantirish yondashuvini hisobga olgan holda : “shahar-bu qishloq xo‘jaligidan hunarmandchilikni ajratish, sinflar va davlatning paydo bo‘lishi natijasida ibtidoiy kommunal tuzumdan qullarga egalik qilish tizimiga o‘tish davrida tarixiy ravishda shakllangan aholi punkti”[3].

Shuningdek, shaharlarning paydo bo‘lishi, “tabiiy materiallardan (tosh, yog‘och, suyak) sun‘iy – modifikatsiyalangan materiallarga (pishiq g‘isht, metall) o‘tish jarayoni” bilan ham bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, shaharlarning shakllanishi va tarqalishini tub jihatdan yangi turdagi aholi punktlari sifatida jamiyatning yangi ehtiyojlariga javob sifatida ko‘rib chiqish mumkin. O. Shpengler shaharlar haqida mulohaza yuritir ekan, “sivilizatsiya” atamasini madaniyat jamiyatidan ajralib chiqadigan rivojlanish darajasini ifodalash uchun qo‘llaydi. O. Shpenglarning fikricha, shahar sivilizatsiyaning mohiyatini aks ettiradi. Bu, avvalo, shaharga madaniyatning “o‘lik” shakllarining timsoli sifatida qarash bilan bog‘liqdir. Ulkan shaharlar sivilizatsiyaning rivojlanishining oxirgi bosqichi bo‘lib, shu bilan birga o‘z me’moriy konturlarida sivilizatsiyaning madaniy noyobligini aks ettiradi[4]. G. Gegel va O. Girke shaharlarni avvalo siyosiy-huquqiy tuzilmalar sifatida ko‘rib chiqqanlar. Bu nuqtai nazar o‘rta asr davridagi G‘arbiy Yevropaning ko‘plab shaharlarining holatini aks ettiradi, ular zamonaviy ma’noda xususiy mulk bo‘lmasa ham, yirik feodallarning merosiy mulklari bo‘lgan[5]. K. Byuxer va G. Maurer shaharlarning asosiy funksiyasi “mudofaa” ekanligini ta’kidlaganlar. Ularning fikriga ko‘ra, shaharlar tashqi tajovuzlardan himoya qiluvchi ijtimoiy tashkilot sifatida paydo bo‘ladi, o‘sadi va rivojlanadi. Buni ko‘plab arxeologik ma’lumotlar, shahar rejalari va o‘rta asr shaharlarining qoldiqlari tasdiqlaydi, ularning asosiy elementlari qal’a devorlari, xandaqlar va vallardan iborat. M.Veber shaharni yirik, nisbatan izolyatsiyalangan va alohida joylashgan aholi punkti sifatida ko‘rib chiqqan. U yerda turli xil binolar va uylar bir-biriga juda yaqin joylashgan bo‘lib, qo‘shnilar jamiyatiga xos bo‘lgan shaxsiy tanishuv mavjud emas edi. Qo‘shimcha xususiyatlar sifatida, shaharning boshqa turdagi aholi punktlaridan farqini ko‘rsatib, M.Veber shahar aholisi faoliyatining katta xilma-xilligini (asosan qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq bo‘lmagan sohalarda) va muntazam ravishda tovar ayirboshlash amalga oshiriladigan bozorni – daromad manbai hamda aholining ehtiyojlarini qondirish vositasi sifatida belgilaydi[6]. Sotsiolog L.B.Kogan shaharlarning rivojlanishiga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojni aniqlab, “shahar” fenomenining shakllanishi va rivojlanishi asosida yotuvchi ijtimoiy jarayonlarning intensivligi va samaradorligi sharti sifatida turli soha va faoliyat turlarining integratsiyasi hamda kontsentratsiyasi zarurligini asoslagan[7].

# “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

Yu.A.Levada shaharni jamiyatni ijtimoiy tashkil etish va hayotiy faoliyatini hamda madaniyati nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqadi. Birinchi holatda shahar ijtimoiy tuzilmalar, guruhlar va rolli funksiyalarning konsentratsiyasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ikkinchi holatda esa shahar madaniy qadriyatlar, namunalari va insoniy faoliyatning muayyan me‘yorlari markazi bo‘lib, ularning amalga oshirilishi “vaqtlarning aloqasi”ni ta‘minlaydi hamda jamiyatning uzluksiz takror ishlab chiqarilishi va rivojlanishiga xizmat qiladi[8].

Jamiyat taraqqiyotining XIX asrida aholining qishloqlardan shaharlarga ko‘plab ko‘chib borishi, yirik shaharlar sonining ko‘payishi, shahar aholisi salmog‘ining ortib borishi va qishloq joylarga shahar turmush tarzi hamda madaniyatining kirib borishi bilan bog‘liq bo‘lgan shaharlashuv jarayoni tez sur‘atlar bilan rivojlana bordi. 1800-yilda yer shari aholisining 3 %, 1900-yilda 13,6 foizi shaharlarda yashagan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich deyarli 55 % tashkil etdi, 2050-yilga kelib bu ko‘rsatkich Birlashkan Millatlar Tashkiloti bo‘yicha 68% bo‘lishi prognoz qilinmoqda, XIX asr boshida jahon urbanizatsiyasining asosiy manzarasini ko‘rsatuvchi aholi soni 100 mingdan ziyod shaharlar 65 ta bo‘lgan bo‘lsa, keyingi asrda ular 360 ta va XXI asr bo‘sag‘asida 2000 dan ortdi. Millioner shaharlar esa hozirgi kunda 468 ta, 5 milliondan ortganlar- 65 ta, 10 mln. dan ortgan shaharlar -22 ta bo‘ldi. Xususan, dunyoning qator rivojlangan davlatlarida urbanizatsiya jarayoni tez sur‘atlar bilan o‘sib bormoqda. Masalan, AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Belgiya kabi rivojlangan davlatlarda urbanizatsiya darajasi 80-90 foizga etdi.

1920-yillarda shaharlarning dinamik rivojlanish modellari ishlab chiqila boshlandi. Misol tariqasida grek arxitektori K. Doksiadis tomonidan yaratilgan dinapolis modelini, N. Ladovskiyning Moskva shahrini Leningrad yo‘nalishida rivojlantirish loyihasini yoki Parij shahrini parallel ketgan o‘qlar bo‘ylab yo‘naltirish hamda kontrmagnit markazlar paydo qilish sxemalarini aytish mumkin. 1940-yillarda shaharshunos olim Le-Korbyuze o‘z ishlarida asosiy “yadro”ga xizmat qiluvchi barcha narsalarni, shu hududdagi yerni ham kiritadi. P.Kortsuelli va B.Malishning ishlarida faqat aholi yashaydigan va ishlaydigan joylarning yig‘indisi sifatida qaraladi. J.Forrester yirik shaharlarning dinamik rivojlanishini tizimli tahlil va EHM asosida modellashtirib, uzoq muddatga prognozlashtirgan[9].

Ayni vaqtda shaharlar yagona iqtisodiy geografik o‘rin, iqtisodiy makon, bozor muhitini ham bildiradi. Ularda yagona investitsiya muhiti, ekologik, nozogeografik va kriminogen vaziyat ham vujudga keladi. Xususan, shahar yagona sotsial muhit ekanligini ta‘kidlash lozim. Chunki shaharda o‘ziga xos yashash sharoiti, kishilarning haftalik mehnat –hayot faoliyati sodir bo‘ladi.

**Xulosa.** Shaharlar jamiyatning hududiy tashkil etilishining asosiy shakllaridan biri bo‘lib, ularning rivojlanishi iqtisodiyot, geografiya, tarix va sotsiologiya kabi turli fanlar doirasida keng tadqiq etiladi. Urbanizatsiya jarayoni sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarining o‘sishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, aholi zichligi va infratuzilma rivojlanishining ortishiga olib keladi. Shaharlarning shakllanishi hunarmandchilik va qishloq xo‘jaligi mehnatining ajralishi natijasida yuzaga kelgan bo‘lsa, hozirda ular global iqtisodiyotning muhim markazlariga aylangan. Tadqiqotchilar tomonidan shaharlarning mudofaa, siyosiy-huquqiy va iqtisodiy markaz sifatida tutgan o‘rni haqida turli nazariyalar ilgari surilgan. Zamonaviy urbanizatsiya jarayoni jadal rivojlanib, XXI asrga kelib jahon aholisi orasida shahar aholisining ulushi sezilarli darajada oshgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chengri Ding, Shih-Kung Lai, Ming-Shen Wang. Global Urbanization and Urban Management // Journal of Urban Management. 2012. Volume 1. Issue 1. Pages 1-2.
2. Сологуб В.А., Хашева И.А. Муниципальное управление и местное самоуправление в крупных городах: абстракции и реальность // Государственное и муниципальное управление: ученые записки СКАГС. 2007. №2. С. 64-72.
3. Большая советская энциклопедия. (в 30 томах). 3-е издание, т.7. - М.: «Советская энциклопедия», 1972. С. 321.
4. Шпенглер О. Закат Европы: Очерки морфологии мировой истории. - Т. 2: всемирно - исторические перспективы / [Пер. с нем. и примеч. И. И. Маханькова]. - М.: Мысль, 1998.
5. Нещадин А., Горин Н. Феномен города: социально-экономический анализ. - М.: Изограф, 2001. 239 с.
6. Вебер М. Избранное. Образ общества. – М.: Юрист, 1994.
7. Коган Л.Б. Урбанизация и социально-функциональные исследования в градостроительной науке // Сборник научных трудов «Урбанизация и формирование систем расселения. – М.,1978. С. 30.
8. Левада Ю.А. Статьи по социологии. – М., 1993.
9. Форрестер Дж. Динамика развития города. М.: Прогресс, 1974. -287.